O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI MIRZACHO‘L TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 10 - mart 27-3-51-Q/23 Mirzacho‘l tuman hokimligi

Tumanda 2023-yilda avtotransport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l xarakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2013 y., 16-son 197-modda) 17-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021 y., 09/21/125/0195-son) muvofiq, transport vositalarining 2023 yilgi texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning Axboratnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda) 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining tarkibi 1-ilovaga, texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda, o‘z vaqtida reja jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

5. Mazkur Nizomning 4-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta - 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta - 1 sentyabr - 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar - 31 dekabrda o‘tkaziladi.

6. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komisssiyasi (B.Qulanov)ga: transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish; transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo‘l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari, normalariga muvofiqligini baholash vazifasi yuklatilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

8. Transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan tartibda yig‘im undirilsin.

9. Tuman ichki ishlar bo‘limi va texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komisssiyasi (G‘. Bozorqulov) lar, majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlari to‘g‘risida xar chorakda tuman hokimligiga axborot taqdim etsin.

10. “Mirzacho‘l ovozi” gazetasida ushbu qaror e’lon qilinsin va belgilangan tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021 yil 30 dekabrdagi 112-3-46-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Siddiqov zimmasiga, ijrosini tashkil etish tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i J.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

13. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **Sh.Axmedov**

Mirzacho‘l tuman hokimining
2023 yil 10 martdagi
27-3-51-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi TARKIBI

Komisiya raisi va azoalari	**Ish joyi va lavozimi**	**Familya, ismi, sharifi**
Komisiya raisi	Mirzacho‘l tumani IIB YHXB boshlig‘i mayor	B.Qulanov
O‘rinbosari	Mirzacho‘l tumani IIB YHXB inspektori katta serjant	G‘. Bozorqulov
Azolari	«Mirzacho‘ltrans» MCHJ direktori	O.O.Prokofev
Azolari	Mirzacho‘l tumani mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik	I.Normuzaev
Azolari	“Umid” tezkor ta’mir MCHJ katta ustasi	P.Jixanov

Mirzacho‘l tuman hokimining
2023 yil 10 martdagi
27-3-51-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Texnik ko‘rikni o‘tkazish jadvali

T/r	Korxona va tashkilotlar nomi	Transport vositalari soni	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish kuni	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi
1	Mirzacho‘l tuman hokimligi	9	14.03.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
2	"MIRZACHO"L-TRANS" MCHJ	80	14.03.2023 yil	Ташкилот гаражи
3	Мирзачўл туманида фаолият олиб бораётган фермер хўжаликлари	44	16.03.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
4	Мирзачўлдавсувмахсуспудрат ДУК	19	16.03.2023 yil	Корхона гаражи
5	"SARDOR SENATOR" MCHJ	3	18.03.2023 yil	Корхона гаражи
6	"OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	6	22.03.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
7	Мирзачўл туман тиббиёт бирлашмаси	8	14.03.2023 yil	Ташкилот гаражи
8	"МАХСУС МЕЛЕОРАЦИЯ ТАЪМИР ШК"	1	25.03.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
9	TOSHKENT МЧЖ	1	05.04.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
10	"МИРЗАЧУЛ ТУМАН ЙУЛ ХУЖ.ПУД.ТФК"	2	12.04.2023 yil	Ташкилот гаражи
11	"JIZZAX VILOYATI SUV OMBORLARIDAN FOYDALANISH BOSHQARMASI"	13	15.04.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
12	МИРЗАЧУЛ Т ХАЛК ТАЪЛИМИ БУЛИМИ	2	19.04.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
13	МИРЗАЧУЛ Т "СЭС"	3	27.04.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
14	"МАЖБУРИЙ ИЖРО БЮРОСИ"МИРЗАЧЎЛ ТУМАН БЎЛИМИ	1	05.05.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
15	Туман худудида фаолият олиб борувчи хусусий кархона т/в.лари	12	10.05.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
16	АТВ АГРОБАНК	1	17.05.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
17	МИРЗАЧУЛ Т БАНДЛИККА КУМАКЛАШИШ МАРКАЗИ	1	20.05.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
18	МИРЗАЧУЛ ТУМАН ДСЭНМ	3	24.05.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ

19	АТ "ХАЛКБАНК" МИРЗАЧУЛ ФИЛИАЛИ	1	27.05.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
20	МИРЗАЧУЛ ТЙХПТФ КОРХОНАСИ	1	07.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
21	АРНАСОЙ СУВ ОМБОРИДА	3	10.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
22	MCHJ MIRZACHUL CHEMICAL FACTORY	4	14.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
23	"GAGARIN O"QUV SPORT-TEXNIKA KLUBI" UK	4	17.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
24	МКТ ВАТАНПАРВАР	1	20.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
25	"SANGZOR-BIZNES PARRANDA"МЧЖ	107	21.06.2023 й	Жамият гаражида
26	MIRZACHO L SERVIS-AVTO MCHJ	12	10.06.-28.06 2023 . yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
27	"МИРЗАЧУЛ МИЛЛИЙ БАНК" ФИЛИАЛИ	1	24.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
28	JAFAR TRADE DISTRIBU	1	28.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
29	МИРЗАЧУЛ Т "СЭОМ"	2	28.06.2023 yil.	«Умид» автотехсервис МЧЖ
30	MIRZACHUL TUMANI DSI	2	29.06.2023 yil.	«Умид» автотехсервис МЧЖ
31	Туман худудида фаолият олиб борувчи МЧЖлар т/в.лари	42	29.06.2023 yil.	«Умид» автотехсервис МЧЖ
32	ГАГАРИН Ш. АТП-21	1	29.09.2023 yil.	«Умид» автотехсервис МЧЖ
33	ПРОКОФЬЕВ ТРАНС КТХФ	1	29.06.2023 yil.	«Умид» автотехсервис МЧЖ
34	ГАГАРИН ОСИи ТРАНС М	2	29.06.2023 yil..	«Умид» автотехсервис МЧЖ
35	JAVLONBEK-YUSUF DX	1	29.08.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
36	"МИРЗАЧУЛ КХКХ КОЛЛЕЖИ"	1	29.06.2023 yil.	«Умид» автотехсервис МЧЖ
37	"ЖИЗЗАХ НЕФТЕБАЗАСИ" МЧЖ ИРЖАР ФИЛИАЛИ	1	29.06.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
38	МИРЗАЧУЛ Т "GAGARIN USTK UK"	1	29.08.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ
39	"GAGARIN USTK UK"	1	29.08.2023 yil	«Умид» автотехсервис МЧЖ